



## MIGEL DE SERVANTESNING “DON KIXOT” ROMANIDA IDEAL VA REAL VOQELIK TO‘QNASHUVI

**Egamberdiyeva Mushtariybegim,**  
University of Business and Science  
Til va adabiyot ta’limi kafedrası, 1-kurs talabasi

**Ilmiy rahbar: Jamoliddinova Iroda Bahodir qizi,**  
University of Business and Science  
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), katta o‘qituvchi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Migel de Servantesning “Don Kixot” romani ritsarlik romanlariga parodiya sifatida boshlanib, falsafiy asarga aylangani tahlil qilinadi. Asar qahramonlari – Don Kixot va Sancho Pansa timsollarida insoniyatning ma’naviy intilishlari va moddiy dunyo qarashlari o‘rtasidagi ziddiyatlar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Parodiya, ritsar, idealizm, realizm, falsafiy muammo, jamiyat tanqidi.

**Аннотация.** В данной статье анализируется, как роман Мигеля де Сервантеса «Дон Кихот», начинавшийся как пародия на рыцарские романы, превратился в философское произведение. Персонажи произведения — Дон Кихот и Санчо Панса — подчеркивают конфликт между духовными устремлениями человечества и материальным мировоззрением.

**Ключевые слова:** Пародия, рыцарь, идеализм, реализм, философская проблема, социальная критика.

**Abstract.** This article analyzes how Miguel de Cervantes' novel "Don Quixote" began as a parody of chivalric romances and turned into a philosophical work. The characters of the work - Don Quixote and Sancho Panza - highlight the conflicts between the spiritual aspirations of humanity and the material worldview.

**Keywords:** Parody, knight, idealism, realism, philosophical problem, social criticism.

**Kirish.** Jahon adabiyoti tarixida inson ruhiyati, uning orzu-intilishlari hamda real hayot o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqur va badiiy yuksaklikda tasvirlagan asarlar alohida o‘rin tutadi. Ana shunday durdona asarlardan biri ispan adibi Migel de Servantes Saavedraning “Don Kixot” romanidir. Mazkur asar nafaqat ispan adabiyotining, balki butun jahon adabiyotining eng buyuk namunalariidan biri sifatida e’tirof etiladi. Roman ilk bor XVII asr boshlarida yaratilgan bo‘lib, u o‘z davridagi ritsarlik romanlariga tanqidiy munosabat bildirish maqsadida yozilgan. Biroq vaqt o‘tishi bilan asar oddiy parodiya doirasidan chiqib, insoniyatning ma’naviy va falsafiy muammolarini yorituvchi yirik badiiy-falsafiy asarga aylandi.

“Don Kixot” romanida ideal va real voqelik o‘rtasidagi ziddiyat markaziy mavzulardan biri hisoblanadi. Asar bosh qahramoni Don Kixot yuksak orzu va ideallarga sodiq inson sifatida tasvirlansa, uning hamrohi Sancho Pansa hayotga amaliy va real nuqtai nazardan qarovchi obraz sifatida gavdalanadi. Ushbu ikki qahramon o‘rtasidagi qarama-qarshilik orqali Servantes inson tabiatining murakkab jihatlarini, jamiyatdagi



mavjud muammolarni hamda idealizm va realizmning o'zaro munosabatlarini ochib beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi "Don Kixot" romanida ideal va real voqelik to'qnashuvining badiiy-falsafiy talqinini tahlil qilish, Don Kixot va Sancho Pansa obrazlari orqali muallif ilgari surgan g'oyalarni yoritishdan iborat. Shuningdek, asarning jahon adabiyotidagi o'rni va bugungi kun o'quvchisi uchun ahamiyatini ochib berish ham tadqiqotning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Migel de Servantesning "Don Kixot" romani jahon adabiyotshunosligida keng o'rganilgan asarlardan biridir. Tadqiqotlarda asosan asarning ritsarlik romanlariga parodiya sifatidagi xususiyati, idealizm va realizm masalasi hamda Don Kixot va Sancho Pansa obrazlari tahlil qilingan.

Q. Nabiyevning "Jahon adabiyoti tarixi (Uyg'onish davri)" asarida Servantes ijodi va "Don Kixot" romanining jahon adabiyotidagi o'rni yoritilgan. Tadqiqotning asosiy manbasi sifatida Servantesning "Don Kixot" romani xizmat qiladi. Asarda ideal va real voqelik o'rtasidagi ziddiyat Don Kixot va Sancho Pansa obrazlari orqali badiiy ifodalangan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda tahliliy, qiyosiy va tavsifiy metodlardan foydalanildi. Asarda Don Kixot va Sancho Pansa obrazlari orqali ideal va real voqelik o'rtasidagi ziddiyat tahlil qilindi. Shuningdek, qahramonlarning xarakteri, qarashlari va harakatlari o'zaro qiyoslanib, muallifning badiiy hamda falsafiy g'oyalari yoritildi. Tadqiqot jarayonida Servantesning "Don Kixot" romani hamda mavzuga oid ilmiy manbalar asosiy manba sifatida xizmat qildi.

**Tahlillar va natijalar.** XVII asr ispan adabiyotining durdonasi hisoblangan "Don Kixot" romani jahon adabiyoti tarixida yangi sahifa ochdi. Dastlab ritsarlik romanlarini hajv qilish maqsadida yozilgan ushbu asar, vaqt o'tishi bilan insoniyatning eng chuqur falsafiy muammolarini aks ettiruvchi asar hisoblanadi.

Asar qahramoni Alonso Kixano ritsarlik romanlariga haddan tashqari berilishi natijasida xayolparast bo'lib qoladi. U o'zini jahongashta ritsar "Don Kixot" deb e'lon qiladi. Uning asosiy maqsadi dunyoda adolat o'rnatish, yetimlarga yordam berish va yovuzlikni tag tomiri bilan sug'urib tashlashdir.

Don Kixot va Sancho Pansa ziddiyati:

Don Kixot: Yuksak ma'naviyat, xayoliy dunyo va ezgu ideallar ramzi.

Sancho Pansa: Oddiy dehqon, hayotga real va moddiy nuqtai nazardan qarovchi obraz.

Muallif ushbu ikki qarama-qarshi qahramon orqali jamiyatdagi nuqsonlarni hajviy yo'sinda tanqid qiladi. Don Kixotning harakatlari ko'pincha kulgili va muvaffaqiyatsiz bo'lsa-da, uning qalbi toza va niyatlari xolisdir. Bu esa asarning tragedik va komik



xarakterini belgilaydi. Shuningdek , Don Kixot yo'lida ko'plab to'siqlarga duch keladi ammo o'z maqsadi yo'lida barchasini yengib o'tishga harakat qiladi. Servantes bu obraz orqali insonlarni doimo oldinga intilishga, orzu va istaklari yo'lida har qanday mashaqqatlarni yengishga, aslo ortga chekinlaslikka chorlaydi.

Ispan adabiyotining eng buyuk asarini qisqa satrlarda tahlil qilib chiqish juda murakkab ish. Bu asar haqida ko'p narsa yozilgan bo'lsa-da, u hali-hanuz ko'plar uchun noma'lum bo'lib qolmoqda. Uzoq asrlar davomida o'z yurtida adabiyot titani deb qaralgan Servantes, uni endi qo'lga olgan o'quvchiga eski uslubdagi,

og'ir va qiyin muallif sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Ko'p sahifali Don Kixotni o'qib chiqish ulkan vazifa sifatida ko'rinishi tabiiy, ammo asar tili juda yaxshi, muallif so'zlashish tilidan foydalangani sababli o'qish oson.

"Don Kixot" shunchaki sarguzasht asar emas, balki har bir inson qalbidagi ezgu orzular va shafqatsiz voqelik o'rtasidagi mangu kurash ramzidir. Qahramon jismonan mag'lub bo'lsa-da, uning ma'naviy g'alabasi va ritsarlik sharafi o'quvchini doimo mushohadaga chorlaydi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida aytish mumkinki, asar bir qarashda shunchaki komideya janrida yozilgan hamda bosh qahramonning boshdan kechirgan shunchaki kulguli kechinmalari sifatida bo'lib ko'rinsa ham, aslida yozuvchi kulgu ortida ba'zi haqiqatlarni, o'sha davr muhitini yoritib bermoqda. Albatta, shunday kitoblar borki ularni har o'qiganda kitobsevar o'ziga yana bir payqamagan yangiligini, xulosasini kashf etadi. Mana shunday asarlardan biri Migel de Servantosning "Don Kixot" asari desak adashmagan bo'lamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Servantes Saaverda Migel de. Don Kixot. Toshkent G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti 1990.
2. Nabiyev Q. Jahon adabiyoti tarixi (Uyg'onish davri). Toshkent. (2012).
3. <https://www.recursosdeautoayuda.com/uz/don-kixot-iboralari>